Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Investitsion muhit tushunchasining makroiqtisodiy tahlili va nazariy model.....	780
Saidov Rasul Boltabayevich, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi	



UDK: 339

QISHLOQ XO'JALIGINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISH

Dotsent., Mamadiyarov Dilshad Uralovich,

Assistent., Mustaqil izlanuvchi Normurodov Sarvar Norboy o'g'li,

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU,

E-mail: s.n.normurodov@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jaligi sohasini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish jarayonida erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi misolida ushbu yo'nalishdagi ilg'or amaliyotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: agrosanoat majmuasi, innovatsion rivojlanish, innovatsion yangiliklar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, jahon bozorida raqobatbardoshlik, agrar-innovatsion kompleks, zamonaviy agroteknologiyalar, innovatsion menejment.

Abstract: The article analyzes the achievements and existing shortcomings in managing the agricultural sector using innovative technologies. It also highlights advanced foreign practices and international experience in this field.

Key words: agro-industrial complex, innovative development, innovative solutions, agricultural products, competitiveness in the global market, agri-innovation complex, modern agrotechnologies, innovation management.

Аннотация: В статье анализируются достижения и существующие недостатки в управлении сельскохозяйственным сектором на основе инновационных технологий. Также рассматривается передовой зарубежный опыт в данной области.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, инновационное развитие, инновационные решения, продукция сельского хозяйства, конкурентоспособность на мировом рынке, аграрно-инновационный комплекс, современные агротехнологии, инновационный менеджмент.

KIRISH

Bugungi kunda jahon fani va innovatsion faoliyat yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil hamda barqaror rivojlantirish, shuningdek, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli O'zbekiston iqtisodiyoti va xo'jalik yurituvchi subyektlari hozirgi davrda rivojlanishning innovatsion yo'liga qayta yo'naltirish jarayonida turibdi. Bu jarayon ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi tub o'zgarishlar bilan birga jamiyat ongida yuz berayotgan innovatsion yangilanishlar bilan bog'liq bo'lgan modernizatsiyani o'z ichiga oladi. Mazkur modernizatsiya o'z navbatida belgilangan raqobatbardoshlik darajasiga chiqish, turmush darajasining yuksalishini ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga erishish, inson kapitali sifatining oshishi va xalqimiz mentalitetida ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelishini ko'zda tutadi. Bu borada jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, barcha sohalarda sifatli o'sishni ta'minlaydigan yangiliklarni uzluksiz tarzda amaliyotga tatbiq etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Bugungi kunda innovatsion rivojlanish modellari va "aqlli" texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etayotgan mamlakatlar eng barqaror va raqobatbardosh davlatlar qatoriga kiradi. Ularning taraqqiyoti endilikda tabiiy resurslar eksporti yoki jismoniy mehnatga emas, balki innovatsion g'oyalar va ilmiy ishlanmalarga asoslanmoqda.

Innovatsion rivojlanishning asosiy vazifasi — innovatsiyalar va fan yutuqlarini keng joriy etish orqali mamlakat iqtisodiyotining o'sishi va uning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiy jarayonlarda intellektual salmoqning ortishini ta'minlashdan iborat.

Prezident tomonidan 2021–2025-yillarda qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini rivojlantirishga doir Konsepsiyani tasdiqlovchi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Farmon imzolandi. Mazkur hujjatga muvofiq, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tashkil etilishi belgilandi. Ushbu



markaz ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi subyektlariga zamonaviy agroxizmatlar ko'rsatishni uzviy bog'lovchi tizim sifatida faoliyat yuritadi. Milliy markaz "Agroinnovatsiya" DUK, G'o'za urug'chiligi markazi hamda Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi negizida tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yilga "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nom berilgani mamlakatda innovatsion rivojlanishning ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilganidan dalolat beradi.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek:

"Faol tadbirkor deganda biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini, balki butun jamiyatni boqadigan, unga foyda keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi."

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyatni amalga oshirish va amaliyotga joriy etishda, eng avvalo asosiy termin va tushunchalarni aniqlashtirish zarurdir. Innovatsiya muammosi bilan shug'ullanuvchi olimlarning ilmiy izlanishlarini o'rganish natijasida, "innovatsiya", "innovatsion jarayon" va "innovatsion faoliyat" tushunchalariga nisbatan turli xil yondoshuvlar mavjudligini kuzatish mumkin.

Masalan, "yangilik", "yangilik kiritish", "ilmiy-texnik yangilik" kabi atamalar M. Porter, J. Brayt, B. Tviss kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ham uchraydi [8].

Shu bilan birga, innovatsiyaga bir qator iqtisodchi olimlar ham o'z ilmiy mulohazalarini bildirganlar. Masalan, B. Santo innovatsiyaga quyidagicha ta'rif bergan:

"Innovatsiya — bu ijtimoiy-texnik-iqtisodiy jarayon bo'lib, g'oya va kashfiyotlardan amaliy foydalanish orqali, o'z xususiyatiga ko'ra, yaxshiroq bo'lgan mahsulot va texnologiyalar yaratilishiga olib keladi. Agar bu faoliyat iqtisodiy foyda olishga yo'naltirilgan bo'lsa, uning bozorda paydo bo'lishi qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yuzaga keltiradi" [9].

R. A. Fatxuddinov esa innovatsiyani quyidagicha ta'riflaydi:

"Innovatsiya — boshqaruv ob'yektini o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa bir samarani olish maqsadida joriy etilgan yangilikning yakuniy natijasi" [3].

Boshqa bir qator olimlarning fikr-mulohazalarini umumlashtiradigan bo'lsak, ular odatda "innovatsiya"ni "yangilik" yoki "yangilik kiritish" ma'nosida izohlaydilar [5].

R. V. Abdullayev va K. A. Xasanjanov fikriga ko'ra:

"Innovatsiya — ilmiy-texnika taraqqiyotining ko'rinish shakli bo'lib, bilimlarning maxsus turi, yuqori rivojlangan mehnat natijasi hisoblanadi va postindustrial jamiyatda inson hayotidagi yetakchi sohaga aylanib bormoqda" [4].

Ushbu sohada olib borilayotgan amaliy ishlar misolida quyidagilarni keltirish mumkin: O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan 2023-yil 1-yanvardan 2023-yil 30-sentabrgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan faoliyat to'g'risidagi hisobotga ko'ra, joriy yilda vazirlik tizimidagi ilmiy muassasalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Davlat ilmiy-texnik dasturlari asosida jami 295 ta loyiha ustida ish olib borilgan.

Jumladan, mazkur loyihalarning ichida:

21 ta fundamental,

156 ta amaliy,

17 ta yosh olimlarning fundamental va amaliy ishlari,

93 ta innovatsion grant loyihalari,

8 ta noyob ob'yektda olib borilgan tadqiqotlar mavjud.

Ushbu loyihalar mazmuni va yo'nalishi respublikaning ilmiy-texnik salohiyatini oshirishga, innovatsion faoliyatni kuchaytirishga hamda qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar qishloq xo'jaligining paxtachilik, donchilik, meva-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, chorvachilik, veterinariya va boshqa yo'nalishlarini yanada rivojlantirishga, yer, suv, mineral o'g'itlar va boshqa moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqishga, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga, agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirishga, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash kabi muhim masalalar yechimiga qaratilgan.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 1-sonli majlisi bayoni asosida, 2020-yil 10–12-may kunlari “O'zekspomarkaz”da o'tkazilgan “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar” X Respublika yarmarkasida tizimdagi muassasalar olimlari tomonidan yaratilgan 95 ta ishlanma namoyish etildi. Shu bilan birga, tizimdagi 15 ta ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan fermer xo'jaliklari va boshqa buyurtmachilar o'rtasida 250 dan ortiq, jami 3,7 milliard so'mlik o'zaro manfaatli shartnomalar imzolandi. Hisobot davrida tizimdagi muassasalar olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha 30 ta xalqaro va 600 dan ortiq mahalliy jurnallarda, shuningdek 250 ta xalqaro va 580 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda ilmiy maqolalar chop etildi. Bundan tashqari, 3 ta xalqaro, 135 ta mahalliy monografiya, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar nashr qilindi [6].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF–5264-sonli “O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi farmoniga asosan, qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish sohasida quyidagi vazifalar belgilab berilgan [3]:

eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi “Aqlii qishloq xo'jaligi” konsepsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

agrar sektorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni sezilarli darajada oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, shu jumladan yirik riteylerlar yordamida ta'minlash orqali savdo bozorlarini kengaytirish va ularni to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishga ko'maklashish.

Boshqacha aytganda, O'zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushiga ega bo'lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitiga ega, jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirishimiz zarur. Qo'yilgan strategik maqsadlarga O'zbekistonni innovatsion rivojlanish modeliga to'liq o'tkazmasdan turib erishib bo'lmaydi. Bu esa mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari hamda ijtimoiy sohalariga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amaliyotga keng joriy qilishni rag'batlantirish bo'yicha samarali tizim yaratishni taqozo etadi.

Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish esa aynan qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi tarmog'iga innovatsiyalarni joriy etish — ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarini yangicha tashkil etish va boshqarish, chorva mollari va parrandalarni davolash va profilaktika qilishning yangi usullarini ishlab chiqish, o'simlik va hayvonlarni himoya qilish vositalarini takomillashtirish, dehqonchilik, chorvachilik hamda qayta ishlash sanoatida ilg'or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni anglatadi. Shuningdek, bu jarayon yangi yoki yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, chorva mollari va parrandalarning zamonaviy turlari hamda nasllari, o'simliklarning yangi navlarini yaratish va tadqiq qilishga qaratilgan xo'jalik amaliyotini o'z ichiga oladi.

Agrosanoat majmuasida innovatsiyalarning asosiy turlari va yo'nalishlarini shakllantirish ularning xilma-xilligi, shakli hamda qo'llanilish usullari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Shu sababli, innovatsion jarayonlarni boshqarish — innovatsiyalarni ularning xarakteriga ko'ra tasniflashni hamda ularning eng muhim jihatlari tavsiflovchi mezonlarga asoslanib yondashishni talab etadi.

Qishloq xo'jaligi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, innovatsiyalar quyidagi to'rt toifaga bo'linadi:

- seleksion-genetik innovatsiyalar;
- texnik va texnologik ishlab chiqarish innovatsiyalari;
- tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalari;
- ijtimoiy hamda ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsiyalar.

Mazkur tasnif agrar sektorda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish uchun uni sanoatning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish zarur. Shu munosabat bilan, qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni boshqarishning samarali mexanizmini shakllantirish maqsadida, O'zbekistonning har bir mintaqasida hududiy ixtisoslashgan agrotexnik markazlar tashkil etishni taklif etamiz.

Mazkur mintaqaviy ixtisoslashgan agrosanoat markazlarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

agrosanoat kompleksida hududiy innovatsiya siyosatini shakllantirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;



mintaqaning qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish;
agrar innovatsiyalar bozorini monitoring qilish;
innovatsion faoliyat yo'nalishlarida qishloq xo'jaligi korxonalarining axborot-kommunikatsiya bilan ta'minlanishini tashkil etish;
agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va ularni tanlash;
innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishda konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
agrar innovatsiyalar va davlat tomonidan berilgan imtiyozli investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini monitoring qilish va nazoratga olish.

1-jadval. Mintaqada qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

№	Innovatsiyalar	Kutilgan natijalar
Dehqonchilik sohasida		
1.	Uyali texnika, molekulyar genetika va an'anaviy seleksiya asosida kasalliklarga chidamli, yuqori unumdor ekin navlarini joriy etish	Hosildorlikni oshirish, don sifati yaxshilanishi
2.	Xorijiy yuqori unumdor navlarni mintaqa tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish	Mahsuldorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish
3.	Yerdan foydalanish va suvni tejash texnologiyalarini ishlab chiqish	Tuproq unumdorligini saqlash, suvdan oqilona foydalanish
4.	Qishloq xo'jaligi jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash uchun resursni tejovchi texnikalarni ishlab chiqish	Mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish
5.	O'simlik kasalliklari va zararkunandalarga qarshi samarali biopreparatlarni ishlab chiqish va qo'llash	Mahsulot sifatini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash
Chorvachilik sohasida		
6.	Yuqori nasldor chorva turlarini yetishtirish va ko'paytirish	Mahsuldorlikni oshirish, nasl sifati yaxshilanishi
7.	Xorijiy zotdor chorva mollarini mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish	Naslchilik xarajatlarini kamaytirish, mahsuldorlikni oshirish
8.	Chorvachilik chiqindilarini qayta ishlashga mo'ljallangan chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish	Mahsulot turini kengaytirish, xarajatlarni kamaytirish
9.	Resursni tejovchi axborot tizimlariga asoslangan chorvachilik texnologiyalarini ishlab chiqish	Mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish
10.	Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanuvchi suv ta'minoti texnik vositalarini ishlab chiqish	Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash
11.	Chorva mollarini oziqlantirish tizimini takomillashtirish	Mahsuldorlik va mahsulot sifati oshirilishi
12.	Diagnostika, profilaktika va davolashning innovatsion usullarini ishlab chiqish	Chorvachilik mahsulotlari sifati va ekologik holatning yaxshilanishi

* qayta ekish va lalmi yerlarni hisobga olgan holda.

Ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish va hosildorlikni oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining sezilarli darajada ortishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida quyidagi o'sish ko'rsatkichlariga erishilishi prognoz qilinmoqda: boshqoli don yetishtirish hajmi 1 195,0 ming tonnaga, kartoshka 931,0 ming tonnaga, sabzavotlar 3 002,2 ming tonnaga, mevalar 648,6 ming tonnaga va uzum 273,9 ming tonnaga ko'payadi. Bu esa mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga mustahkam zamin yaratadi [8].

Shuningdek, mazkur qarorga muvofiq, 2019–2024-yillar davomida qator oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishida yangi quvvatlar ishga tushirilgan. Xususan:

meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo'yicha umumiy quvvati 99 100 tonnaga teng bo'lgan 138 ta korxona;
go'sht mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 16 500 tonnani tashkil etuvchi 46 ta korxona;
sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha umumiy quvvati 34 850 tonnani tashkil etuvchi 79 ta korxona;



boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 26 840 tonnani tashkil etuvchi 153 ta yangi korxona faoliyati yo'lga qo'yilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha tizimli tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, 2024-yilga kelib, 2019-yilga nisbatan quyidagi o'sish ko'rsatkichlariga erishish mumkin bo'ladi: meva-sabzavot konservalari hajmi 79,4 %, meva sharbatlari 80,5 %, quruq mevalar 73,1 %, go'sht va go'sht mahsulotlari 59,5 %, kolbasa mahsulotlari 68,8 %, sut va sut mahsulotlari 56,6 %, sariyog' 51,4 %, qandolat mahsulotlari 59,9 %, o'simlik yog'i 57,2 %, shakar 24,0 %, pishloq 2,5 baravar, go'shtli konservalar 2,4 baravar, baliq mahsulotlari 3,4 baravar va muzlatilgan baliq 2,8 baravar oshiriladi [8].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar bilan birgalikda, bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini muntazam ishlab chiqaruvchilar bilan bir qatorda, kichik tomorqa yerlari va chorva mollariga ega bo'lgan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ham yangi ishlab chiqarish shakllarini — birlashma, uyushma yoki kooperativ shaklida — tashkil etish orqali innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini yaratishi zarur.

Shu bilan birga, ushbu xo'jaliklar ishlab chiqarish faoliyatini asosan past rentabellikka ega chorva turlari hamda eskirgan uskunalar asosida, qo'l mehnatidan foydalangan holda amalga oshirmoqda. Shu sababli, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni yanada rivojlantirish, aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liqroq qondirish maqsadida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarini rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish lozim.

Ma'lumki, chorva yem-xashaksiz mahsulot bermaydi. Ayni vaqtda esa yem-xashak ta'minoti dehqon xo'jaliklarida eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shuning uchun chorva mollari bosh sonini ko'paytirish uchun ushbu xo'jaliklarga yetarli miqdorda ekin maydonlari va yaylovlar ajratish, ularning mahsuldorligini oshirish, shuningdek, turli yemlarni (masalan, kunjara, shulxa, kepek va boshqalar) sotib olish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Masalan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga chorva yem-xashaklarini vositachilar — fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari yoki boshqa davlat korxonalari orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilardan sotib olish huquqini berish maqsadga muvofiqdir. Bunday sharoit yaratilganda, bozorimizdagi go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari narxlarini aholining to'lov qobiliyatiga mos ravishda shakllanadi.

Bundan tashqari, chorvachilikda bugungi kunda deyarli qadrsiz mahsulot hisoblanadigan junni qayta ishlashni yo'lga qo'yish ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-oktabrdagi PF–5199-sonli Farmoni. Xalq so'zi, 2017-yil 10-oktabr. <https://lex.uz/docs/-3371644?ONDATE=10.10.2017>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 29-dekabrda PQ–2460-sonli "2016–2020-yillar davrida qishloq xo'jaligini isloh qilishni chuqurlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi, 2015-yil 30-dekabr. <https://lex.uz/docs/-5008055>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi 2017-yil 29-noyabrdagi PF–5264-sonli Farmoni. Xalq so'zi, 2017-yil 30-noyabr. <https://lex.uz/docs/-3431985>
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent, 2004. – 179-bet.
5. Dyjova A. Osnovy upravleniya intellektualnoy sobstvennostyu. – Mogilev, 2017. – 117 s.
6. Komiljonov B.I. Innovatsiyaviy menedjment uslublarini takomillashtirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.
7. Santo B. Innovatsiya kak sredstvo ekonomicheskogo razvitiya. Per. s veng. / Obshch. red. i vstup. st. B.V. Sazonova. – M.: Progress, 2021. – 296 s.
8. Abdullayev R.V., Xasanjanov K.A. Innovatsion yangilanish – iqtisodiyot modernizatsiyasi va raqobatbardoshligi asosi. // Iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi: muammolar va innovatsion rivojlanishga o'tish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 24.
9. Strategiya sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya agropromyshlennogo kompleksa Rossiyskoy Federatsii na period do 2020 g. (nauchnye osnovy). Rossiyskaya akademiya selskokhozyaystvennykh nauk. – M., 2020. URL: <http://www.vniiesh.ru>
10. Umurzoqov U.M., Toshboyev A.J. Fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. – Toshkent, 2019.
11. Ushachev I. Nauchnoe obespechenie gosudarstvennykh programm razvitiya selskogo khozyaystva Rossii. – M., 2022. – 9 s.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>